

## TA'LIM SOHASIDA MULTIMEDIA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING ASOSIY VAZIFALARI

*Malika Sadikovna Kamalova*

*Buxoro pedagogika kolleji maxsus fan o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'lim sohasida multimedia texnologiyalarini qo'llashning muhim jihatlari va ahamiyati haqida tushuncha berilgan.

**Kalit so'zlar:** multimedia texnologiyalar, innovatsion pedagogik faoliyat, ta'lim metodikasi, texnikaviy dasturlar.

Bugungi kunda jahon ta'lim sohasida o'qitishning zamonaviy shakl va didaktik vositalarini joriy etish, zamonaviy ta'lim vositalari asosida o'quv jarayonini loyihalash, axborot ta'limi muhitida dasturiy ta'lim vositalaridan foydalanish dolzarb masala sifatida qaralmoqda. Ta'lim jarayonini tashkil etishda innovatsion texnika va texnologiyalarni qo'llash, ta'lim jarayoniga milliy va jahon ta'lim tajribasida mavjud yondashuvlarga asoslangan tashkiliy-pedagogik mexanizmlarni tadbiq etish hamda takomillashtirish orqali mamlakatimiz intellektual resurslari potentsiali ulushini oshirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda tub islohotlar amalga oshirildi. Ijtimoiy soha, jumladan, ta'lim tizimida amalga oshirilgan tub o'zgarishlar yangi ta'lim muassasalarining yaratilishi, davlat ta'lim standartlarining takomillashishi, mavjud ta'lim mazmunining yangilanishi uchun keng imkoniyatlar yaratdi.

Bugun ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan yoshlar xalqimizning kelajagi hisoblanadi. Fan va texnika taraqqiyoti jadal borayotgan bugungi kun ta'lim oluvchilarga ham, ta'lim berayotganlarga ham katta talablar qo'yiladi. Inson uchun zarur bo'lgan bilimlar hajmi keskin va tez o'sib borayotgan hozirgi sharoitda ma'lum bo'lgan ma'lumotlarnigina o'zlashtirib olishga suyanish kifoya qilmaydi. O'quvchilarga o'z bilimlarini mustaqil boyitish va ilmiy hamda siyosiy bilimlarning shiddatli oqimida to'g'ri qaror qabul qilish uquvini singdirish muhimdir.

Hozirgi zamonaviy bosqichda pedagogik dolzarb vazifalarga fan texnika, ilg'or texnologiyalar yutuqlaridan foydalanish asosida shaxsni tarbiyalash, o'qitish va rivojlantirish maqsadlari, mazmuni, metodlari, vositalari va tashkiliy shakllarini ilmiy ta'minlash kiradi.

Inson taraqqiyotining barcha davrlarida ijodiy mehnat bashariyatni olg'a harakatlantiruvchi asosiy omil bo'lib kelgan. Shunday yosh avlodni ijodiy mehnatga o'rgatish uni zamonasining eng ilg'or bilimlar bilan qurollantirish, barcha davrlarda barcha xalqlar uchun dolzarb vazifa hisoblangan. Jamiyat rivojlanar ekan har bir

sohada rivjlanishni talab etadi. Buning uchun o‘quvchi yoshlarimizning qiziqish va qobiliyatlariga qarab rivojlantirib borishimiz lozim.

Respublikamizda uzluksiz ta’limni joriy etish jarayonida ta’lim mazmuni yangilandi, o‘quv dasturlari va o‘quv fanlari bo‘yicha DTS modernizatsiyalandi. Ushbu jarayon ta’lim-tarbiya jarayonining boshqa tarkibiy qismlari: o‘qitish metodlari, vositalari va shakllarini innovatsiya kiritish orqali modernizatsiyalashni talab etmoqda.

Zamon bilan hamnafas pedagogik faoliyat yuritayotgan moderator o‘qituvchilar yuqorida qayd etilgan talablarga monand holda o‘qitishda interfaol metodlar, pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalar-dan foydalanish bo‘yicha dastlabki tajribalarni egallamoqda.

Respublikamizda joriy etilgan uzluksiz ta’lim tizimiga innovatsiya quyidagi yo‘llar orqali tatbiq etilmoqda:

- axborot va kommunikatsion texnologiyalar-texnologik innovatsiyalar;
- ta’lim-tarbiya jarayonining mazmunini yangilash, uning borishi va o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiruvchi texnologiyalar- pedagogik innovatsiyalar;
- ta’lim sohasidagi zamonaviy iqtisodiy mexanizmlar-iqtisodiy innovatsiyalar;
- ta’lim sohasidagi zamonaviy tuzilmalar-tashkiliy innovatsiyalar;

Ma’lumki, yuqorida qayd etilgan innovatsiyalar ta’lim-tarbiya jarayoniga kompleks holda joriy etilishi o‘qituvchidan muayyan metodik bilim, ko‘nikma va malakalar, shuningdek, pedagogik kompetentlik(layoqat)ni talab etadi.

O‘qituvchining zamonaviy metodik bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashi, shuningdek, pedagogik kompetentlik (layoqat)ning mavjudligi uning o‘z pedagogik faoliyatida barkamol shaxsni voyaga yetkazishni nazarda tutishiga asos bo‘ladi.

Ma’lumki, multimedia texnologiyasi, asosan, kompyuterlar yordamida amalga oshiriladi.. Multimediali darslar asosan kompyuter yordamida amalga oshirilishi tufayli o‘quvchilar ular bilan elementar ishlash darajasiga ega bo‘lishlari lozim. Bu o‘z navbatida o‘quvchilarda kompyuter savodxonlikni shakllantirishni taqozo etadi. Multimedia vositalari asosida o‘quvchilarga ta’lim berish va kadrlarni qayta tayyorlashni yo‘lga qo‘yish hozirgi kunning dolzarb masalasidir. Multimedia tushunchasi hayotimizga o‘tgan asr 90-yillarining boshida kirib keldi. Hozirgi davrga qadar multimedia tushunchasi ko‘pgina mutaxassislar tomonidan turlicha tahlil qilinmoqda. Multimedia — bu informatika fanining dasturiy va texnikaviy vositalari asosida audio, video matn, grafika va animatsiya effektlari asosida o‘quv materiallarini o‘quvchilarga yetkazib berishni mujassamlangan holdagi ko‘rinishidir, degan ta’rif eng maqbuli deb hisoblaymiz.

Ta’lim muassasalari dars jarayoniga multimedia texnologiyalarining joriy etilishi ta’lim samarasini oshirishning asosiy omili bo‘lib xizmat qilmoqda. Ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalar, jumladan, multimedia texnologiyalari tatbiq etib

borilmoqda. Ta’lim jarayonida o’quvchilarga texnik vositalar va multimedia texnologiyalari asosida ta’lim berish, berilayotgan bilimni tez va oson o’zlashtirilishi, ularning tushunarli va xotirada yaxshi saqlanishiga yordam berayotganligi amalda o’z isbotini topmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

- Mirziyoyev Sh.M. Toshkent “Yoshlar formida so’zlagan nutqlari 2020-y. O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risidagi qonuni”. Toshkent shahri.2020-yil 23-sentabr.
- Garry G. Azgaldov Alexander V. Kostin Alvaro E. Padilla Omiste The ABC of Qualimetry Fonts kindly provided by ParaType Inc Redero 2015.
- Ж. Толипова Педагогик квалиметрия. ТДПУ босмахонаси. 2015й.107 б.
- Толипова Ж.О. Биология ўқитувчисининг илмий-методик тайёргарлиги даражасини орттиришнинг назарияси ва амалиёти. Монография. -Т.: Фан. 2005. -114 б.
- Федюкин В.К. Квалитология: Учебное пособие. Часть 1. - СПб.: Изд-во СПбГИЭУ, 2002.
- Федюкин В.К. Основы квалиметрии. - М.: Изд-во «ФИЛИНЪ»,2004.
- <http://www.pedagog.uz/> Каримов И. Меҳнат таълими ўқитиш технологиялари. – Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ, 2013. – 228 б.
- Олимов Қ.Т., Жалолова Д.Ф., Каримова М.Н. ва бошқ. Махсус фанларни ўқитиш методикаси. – Т.: Фан ва технология, 2013. – 240 б.
- Пўлатов И.П., Исамитдинов С.С., Одилов С.А. Таълимда инновация. – Тошкент: Фан, 2007. – 170 б.
- Розиков О.Р., Адизов Б.Р., Нажмиддинова Г.Н. Умумий дидактика.
- БАРЧА ТАЪЛИМ ЙЎНАЛИШЛАРИ “ПЕДАГОГИК КВАЛИМЕТРИЯ” модули бўйича ЎҚУВ –УСЛУБИЙ МАЖМУА Тошкент - 2016 Низомий номли ТДПУ, п.ф.д., доц. Ж.Толипова, катта ўқитувчи А.Б.Тўраев

### **Elektron ta’lim resurslari:**

- <http://www.uzedu.uz/>  
<http://www.ziyonet.uz/>  
<http://www.istedod.uz/>  
[auotoplaymediastudio.com](http://auotoplaymediastudio.com)  
[imagine-programming.com](http://imagine-programming.com)